

Hamkorlik hikmati

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk kunlaridanoq, o'zining ishonchi va suyanchi deb bilgan yurt yoshlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratdi, yoshlarga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu borada oliygohimizda ham e'tiborga molik qator ishlar amalga oshirilgan va amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, institutimiz talabalar turar joylarida yoshlarimizni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun tarbiyachi pedagoglarimiz mas'uliyatni his qilgan holda faoliyat olib bormoqdalar. Ayniqsa, 4-sonli talabalar turar joyining tarbiyachi pedagogi Qutlimuratov Javlonbekning bu boradagi tashkilotchiligi tahsinga sazovordir.

U talabalarni bir-biriga bo'lgan hurmatini, birdamligini oshirish, bir oila farzandidek ahil va inoq bo'lishlari uchun turli xil musobaqalar uyushtirib keladi. Shu bilan bir qatorda talabalar o'z iste'dodlarini namoyish etishlari, o'zlariga bo'lgan ishonch hissini yanada oshirishlarini nazarda tutgan holda, ko'plab tadbirlar o'tkazib kelmoqda.

Ularning mehnatlarini rag'batlantirish maqsadida talabalar uyiga, ya'ni mahallalariga ota-onasiga tashakkurnomalar jo'natgan. Tashakkurnomalarni mahalla faollari tomonidan ota-onalariga topshirish marosimlari viloyatlar ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borilmoqda.

Navoiy viloyati "To'qqiztepa" MFY raisi minnatdorchilik bildirdi. Hurmatli O'ktam Pardaevich, talabangiz Usmanbaev Murad Furqat o'g'li institut va fakultetingizda o'zining yaxshi xulqi va o'qishi intizomi bilan fakultet tadbirlarida faol ishtirok etganidan biz juda xursandmiz. Shunday bilimli, zukko farzandni tarbiyalab o'qitayotgan Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining o'qituvchilariga katta minnatdorchilik bildiramiz.

Siz va jamoangizga kelgusi ishlariga rivoj va muvaffaqiyatlar tilaymiz. Sizning yuborgan tashakkurnomangizni olib "To'qqiztepa" MFY aholi o'rtasida Usmanbaev Muratning otasi Jumabaev Furqat Usmanbaevichga o'z tabrigimizni bildirib tashakkurnomani topshirdik.

Konimex tumani hokimi Murod Egamqulov ham ushbu tashakkurnoma haqida ma'lum qildik va Konimex tumanidan chiqadigan "Konimex tongi" gazetasiga maqola berdik. "To'qqiztepa" MFY raisi K. Artikov Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti professor o'qituvchilariga minnatdorchilik bildirdi.

Ma'naviyat va iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Dilbar Siddiqova axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov